

BADIIY ASARNI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Berdibek Batirbek o‘g‘li YUSUPOV,

o‘qituvchi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

berdibekyusupov@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15257036>

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsiyalardan unumli foydalanish o‘quvchilarda faol hayotiy ko‘nikmalarni, jamoaga mas’ullikni, ahillikni, birdamlik, vatanparvalikni tarbiyalshga xizmat qiladi.

Qozoq adabiyoti mumtoz merosini o‘rganishdagi asosiy kamchilik shundaki, o‘quvchilar ijodkorlar haqidagi ma’umotlarni badiiy tarjimalar asosida tasavvur hosil qiladilar. O‘quvchilar muallifni tashvishga solgan fikr va tuyg‘ularni his qilishlari uchun darslarni qanday o‘tkazish kerak? Shoirlarni zamonaviy o‘quvchilarga qanday yaqinlashtirish mumkin?

Tajriba-sinov jarayonida o‘tkazilgan eksperimental mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga shunday savollar berilgan. Ushbu muammolarni hal qilish, birinchi navbatda, o‘quv materialini yangilashni talab qildi. Bu jihatlarni 8-sinfda Abay ijodini o‘rganish misolida tahlil qilindi. Masalan:

O‘lan – so‘zning poshshosi, so‘z sarasi,

Qiyindan qiyiltirar er donosi,

Tilga yengil, yurakka iliq tegib,

Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi.

Saralanmay bulg‘ansa so‘z orasi,

Bu – oqinning bilimsiz-bechorasi.

Ham oqin, ham tinglovchi ko‘pi nodon,

So‘z tanimas bul yurtning bir porasi.

Suhbat quyidagi masalalar yuzasidan olib borildi:

1. Bu she’rda qanday umumiylik bor va uni nimadan ajratib turadi?

2. Shoirning xulosasiga qo‘shilasizmi?

3. Muallif bu she’rda qanday hayotiy kuzatishlarga asoslagan?

4. Shoir she’rda qanday falsafiy umumlashmalar qiladi?

5. Asarga qanday kayfiyat singdirilgan?

6. Shu kabi his-tuyg‘ularni, kayfiyatlarni boshdan kechirganmisiz?

Tahlilning eng samarali usuli, tajribalar ko‘rsatganidek, she’rlarga o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan savollar berishdir. Bu usul ularga asar



muammolarini tushunish, matnni chuqurroq o‘qib chiqish, she’r mazmunini ochish imkonini beradi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, bu o‘quvchilarga badiiy idrok etish uchun matn ustida bajarilgan mustaqil, puxta o‘ylangan ishlardan o‘z-o‘zini qoniqtirish, dunyoni obrazli ko‘rishga imkon yaratadi.

“Ma’lumki, har bir adabiy materialdan so‘ng berilgan asarning mohiyati va badiiyatini ochishga qaratilgan, qahramonlarning ruhiy olami, o‘ziga xos xarakter xususiyatlarini anglashga yo‘naltirilgan savol-topshiriqlarning berilishi o‘quvchilarning mavzuni chuqur o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Ijodiy va mantiqiy fikrlashga o‘rgatuvchi, asar badiiyatidagi o‘ziga xosliklarni mustaqil izlab topishga undovchi savol-topshiriqlardan unumli foydalanish va amaliyotga tatbiq etish dars samaradorligining asosiy omilidir”¹.

Turkum darslarda o‘quvchilar “Turkiy xalqlar adabiyotini nima birlashtiradi, ularning o‘xshashligi nimada?” savoli ustida fikr yuritishga yo‘naltirildi. Masalan:

1. Abay va Maxtumdul iiodining g‘oyaviy o‘xshashligi nimada?
2. Abayning va Maxtumdulining asarlarini nimaga asoslanib qiyoslash mumkin?
3. Maxtumdul va Abay iiodidan sizga yoqqan satrlarni ayting.
4. Xususiy tarixiy va umuminsoniy tushunchalar siz uchun tanishmi? Agar shunday bo‘lsa, Maxtumdul va Abay she’riyatidagi konkret tarixiy va umuminsoniy elementlarni eslang.

O‘quvchilar quyidagi mavzularda insho yozishlari mumkin:

1. “Abay ta’limoti va Maxtumdulining axloq kodeksi.
2. Abay uchun she’riyat nima?
3. Maxtumdul va qozoq klassiklari iiodining muhim xususiyatlari.

Maktabda adabiyotni o‘rganishning asosiy vazifalaridan biri jahon adabiy jarayoni haqidagi tushunchani shakllantirishdir. Qozoq adabiyoti bu tushunchalarning shakllanishiga sharoit yaratadi, chunki u yagona jahon adabiy jarayonida rivojlanayotgan adabiyot turlaridan biri bo‘lib, ayni paytda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘qituvchilarning zamonaviy iiodiy izlanishlarida biz mavzu yuzasidan muammolarni birlashtirish, taqqoslash, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni yonma-yon qo‘yishga urinishlarni ko‘ramiz. Bunga qoraqalpoq maktablarining 10-sinf “Adabiyot” darslarida Berdaq va Abay iiodidan materiallar o‘rganilgani misol bo‘la oladi. Ushbu kitobdagi materiallardan Yuqorichirchiq tumanidagi 8-sonli maktabning

¹ Юсуфжонова Н.Н. Туркий халк эпосларини киёсий-типологияк ёндашув асосида ўқитиш технологияси. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 16-б.



eksperimental 10-sinfida o‘tkazilgan darslarda foydalanilgan. Darsda Berdaq va Abay she‘riyati haqida qiziqarli ma‘lumot berilgan bo‘lib, u adabiyotga, she‘riyatga qiziqqan, she‘r yozgan va o‘qishga tayyorlanayotgan o‘quvchining konspektiga asos bo‘ldi. Uning ushbu darslikda berilgan materialni puxta egallashi, bilimlarini sinfdoshlariga qiziqarli shaklda bayon qilishiga sabab bo‘ldi. Xususan, qoraqalpoq va qozoq shariyatining xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi, ikki xalq dardining hamohangligi, turmush tarzi, urf-odatlarining o‘xshashligi to‘g‘risida xulosaga kelishiga va mazkur xulosalarini

Rus metodisti N.Sobolevning qiyoslash o‘quv tahlilida samara berishi uchun quyidagi shartlarga asoslanishni qayd etadi:

- a) aniq maqsadga qaratilganligi;
- b) muhim va turg‘un belgilarga assoslanishni;
- d) matniiqiy izchillikka amal qlinishi;
- e) jarayonda o‘xshash va farqli jihatlariga izoh berilishi².

Turkiy xalqlar adabiyoti vakillari ijodini qiyosiy o‘rganish har bir milliy adabiyotning milliy xarakteri bilan birga boshqa qardosh xalqlar adabiyoti bilan mushtarak xususiyatlarga egaligi xususida muayyan xulosaga kelishga yordam beradi. Berdaq va Abay ijodini qiyosiy o‘rganish buning yorqin dalilidir. Bu borada professor Q.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq: “O‘quv tahlili kechimida amalga oshiriladigan qiyoslash, bir tomondan, solishtirilayotgan adabiy hodisalarning hayotiy-estetik mohiyatini teranroq anglashga, boshqa tomondan, ulardagi o‘xshashlik va o‘zgachalikning sababini anglashga qaratilgandagina o‘quv tahlili jarayonida o‘quvchilarning tafakkur va tuyg‘ulari o‘sishiga xizmat qiladi”³.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib brogan izlanishlar davomida ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning 8-sinfi “Adabiyot” darsligi bo‘yicha Abay ijodining o‘rganilishiga alohida e‘tibor qaratdik. Buyuk shoirning hayoti va ijodining o‘rganilishiga bag‘ishlangan dars o‘qituvchining M.Avezov qalamiga mansub “Abay yo‘li” romani syujeti epizodlariga asoslanib, quyidagi savol-topshiriqlar misolida adibning millat faxri, jamoat arbobi sifatidagi ijodiy qiyofasi to‘g‘risida tasavvur berishdan boshlandi.

1. Abayni 20 yoshida zamondoshlari orasida nima mashhur qildi?
2. Abayning prinsipiialligi katta jasorat talab qilganligini asoslang.

² Sobolev N.A. Методика сравнительного анализа художественных произведений в школе. Учеб. пособие для студентов и учителей-словесников. – Смоленск, 1976. – С. 16. – 163.

³ Yo‘ldosh Q. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli // Global ta‘lim va milliy metodika taraqqiyoti. – Toshkent, 2020. – B. 31.



3. Abay she'riyatini oziqlantirgan manbalarni ayting.

O'quvchilar oxirgi savolga darslik maqolasi asosida o'qituvchi yordamida javob berishlari kerak. Agar xalq ijodiyoti, Sharq mumtoz she'riyati, qozoq tili (va u orqali jahon madaniyati) haqida so'z yuritilsa, o'qituvchi Abay she'riyatining muhim xususiyatini belgilab bergan yana bir manbaga, ya'ni milliyligi bilan hayot qarama-qarshiliklari originallikka ahamiyat qaratadi.

Bugungi shiddatli davr mustaqil tafakkurli zamonaviy yoshlarni tarbiyalashni taqozo etar ekan, ilg'or pedagogik texnologiyalar vositasida buyuk allomalarimizning ijtimoiy muhit va tarbiyani o'zgartirish orqali har qanday xarakterni tarkib toptirish mumkinligi haqidagi fikrlari o'rinlidir.

“Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslarini va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashining tizimli uslubidir”⁴.

Pedagogik texnologiya mohiyatiga ko'ra ta'limning tizimli usuli bo'lib, maqsadi, vazifalari, mazmuni, o'qitish usullari, natijalarini loyihalashni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular ta'lim jarayonining muayyan jihatiga e'tibor qaratilishi natijasida belgilanishi bo'yicha farqlanadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ta'lim oluvchilarning hayotga ongli munosabatini, dunyoqarashi va mustaqilligini belgilash hamda pedagogik munosabatlarni demokratlashtirish, insonparvarlashtirishga yangicha yondashuvdagi muhim omillardan biri bu – shaxsga yo'naltirilgan texnologiyadir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya *ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha* pedagogik texnologiyalar sirasiga kiradi⁵.

Pedagogik adabiyotlarda Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaviy qarashlari borasidagi izlanishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi elementlarini o'ziga xos ko'rinishlarda ishlatilishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, bu borada Suqrot, Demokrit, Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus Unsurulmaoliy, Navoiy kabi mutafakkir allomalar qarashlarida turli darajada o'z aksini topganligi kuzatiladi.

Suqrot falsafasida tarbiyadan kutilgan maqsad narsalar tabiatini o'rgatish bo'lmay, balki kishining bilim olish qobiliyatini, axloqini kamol toptirish bo'lmog'i lozimligi uqtirilishi bejiz emas.

⁴ Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000. – 3-b.

⁵ Ёўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 37-6.



Forobinying insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari tashqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishi va rivojlanishiga doir fikrlari zamirida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o'rin tutishiga e'tibor qaratiladi.

Abu Ali ibn Sinoning komil inson haqidagi falasafiy va ijtimoiy qarashlarida inson xulqida yaxshi va yomon jihatlarning tarkib topishida ehtiyotkor bo'lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligi uqtiriladi⁶.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida Kaykovusning "Bilim yo'lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligi ta'kidlanishi alohida e'tiborga loyiq.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida muallim o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, chigal masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlashga o'rgatilishi kerakligi haqidagi fikrlarida ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim elementlari mujassamligi o'z-o'zidan ayondir.

Ko'rinadiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim oluvchilarning aqliy rivoji, imkoniyatlari darajasida psixologik-pedagogik jihatdan sog'lom muhit va qulay sharoit yaratish, ularning fikr mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, o'zaro munosabatlarni qaror toptirish kabi masalalarni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda adabiy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosi yuzasidan Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, Q.Yusupov kabi metodist olimlarning qator izlanishlari e'lon qilindi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyasi zamirida tabiat, jamiyat va madaniyat omillari mavjud bo'lib, pedagog va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchilarning muloqoti jarayonidagi tenglik tamoyillariga asoslanish "olam va odamni kuzatishga, ularni o'rganishga, kuzatganlariga tayangan holda mulohaza yuritish, taqqoslash, baholash, xulosalar chiqarishga o'z ixtiyori bilan kirishish"ga yo'naltiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsida ongning shakllanib borishi, his-tuyg'ularining rivojlanishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi. Tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishi uning maqsadi, shakllari, metodlari, vositalari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalashi ehtiyojiga egaligi bilan bog'liq. Taniqli pedagog A.A.Pligin shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining bir qator mezonlarini ko'rsatadi. Ular qatorida ta'lim oluvchilarning faolligi va tashabbuskorligini; ehtiyoj

⁶ Зиёмуҳаммадов Б. Комиликка элтувчи китоб. – Тошкент: ТУРОН-ИҚБОЛ, 2006. – 195–202-б.



va qiziqishlari asosida tanlashni; e'tiborni natijadan ko'ra faoliyatga qaratish; intellektual o'sishga doir bilish strukturalarini qo'llashni; didaktik materiallarni induktiv va deduktiv metodlarga asoslanib tayyorlashni; izlanish metodlariga tayanishni, shuningdek, ijodiy faoliyatni o'rganish kabi ish turlari ham turadi"⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000. – 3-b.
2. Yo'ldosh Q. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. – Toshkent, 2020. – B. 31.
3. Зиёмуҳаммадов Б. Комиликка элтувчи китоб. – Тошкент: ТУРОН-ИҚБОЛ, 2006. – 195-202-б.
4. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 37-б.
5. Плигин А.А. Личностно-ориентированное образование: история и практика: Монография. – Москва: КСПХ, 2003. – 432 с.
6. Соболев Н.А. Методика сравнительного анализа художественных произведений в школе. Учеб. пособие для студентов и учителей-словесников. – Смоленск, 1976. – С. 16. – 163.
7. Юсуфжонова Н.Н. Туркий халқ эпосларини қиёсий-типологик ёндашув асосида ўқитиш технологияси. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 16-б.
8. Abduvalitov E. The Effective Ways of Teaching the Literature of Fraternal Nations in General Secondary Schools. <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i6.1428>
9. Abduvalitov N. Ways of Teaching Samples of World Literature at Literature Classes by Grene Features. <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 9, Issue 3 March, 2022 Pages: 219-223.
10. Nurjan B. Abduvalitov, Ergash B. Abduvalitov, Baurjan N. Sayfullaev. "Methods of comparative analysis in the study of samples of uzbek and world literature" <https://spast.org/techrep/article/view/4576>
11. Nurymbetovich, S. B. (2023). Dialectisms in the Language of Literary Works. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 33-39. Retrieved from <https://cajlp.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/893>
12. Yusupov B.B. Motherland and Patriotism in the Lyrics of Tulegen Aibergenov. <https://ijssrr.com/journal/issue/view/28>
13. Bazarbayeva Raykhan Abdimumin qyzy Socio-psychological bases of forming speaking competence based on students' creative thinking. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/3485>

⁷ Плигин А.А. Личностно-ориентированное образование: история и практика: Монография. – Москва: КСПХ, 2003. – 432 с.

